

02-06/IN07218514-sonli

2023-yil 13-sentabr

**Toshkent pediatriya tibbiyot
instituti rektori B.Daminovga**

Hurmatli Botir Turg'unpo'latovich,

O'zbekiston yoshlar ittifoqi Toshkent shahar hududiy Kengashi Sizga, hududiy Kengash huzuridagi Ittifoqning oliy ta'lim muassasalaridagi boshlang'ich tashkilotlari Yoshlar yetakchisi, yo'nalishlar, fakultetlar koordinatorligi uchun nomzodlarni tanlov asosida saralovchi Toshkent shahar hududiy tanlov komissiyasining 2023-yil 11-sentabrdagi 02-06-B/11-son bayonini ilovaga muvofiq yubormoqda.

Shu munosabat bilan Sizdan, mazkur bayonga muvofiq tashkiliy amaliy chora-tadbirlarni belgilashda hamda amalga oshirilgan ishlar yuzasidan ma'lumotlar (Ittifoqning oliy ta'lim muassasasidagi boshlang'ich tashkiloti umumiy yig'ilishi o'tkazilganligi to'g'risidagi bayonnoma, Yoshlar yetakchisi, yo'nalishlar, fakultetlar koordinatorlariga har oylik qo'shimcha haq to'lash ko'zda tutilgan tegishli buyruq nusxalari)ni 10 kun muddatda Ittifoqning Toshkent shahar hududiy Kengashiga taqdim etishda amaliy yordam berishingizni so'raymiz.

Ilova 3 varaqda.

Hurmat bilan,

Kengash raisi,

Hududiy tanlov komissiyasi raisi



Sh.Anvarov

“TASDIQLAYMAN”

O‘zbekiston yoshlar ittifoqi
Toshkent shahar hududiy Kengashi raisi,
Tanlov komissiyasi raisi



Sh.Anvarov
2023-yil 11-sentabr

**O‘zbekiston yoshlar ittifoqining oliy ta’lim muassasalaridagi boshlang‘ich tashkilotlari
Yoshlar yetakchisi, yo‘nalishlar, fakultetlar koordinatorligi uchun nomzodlarni tanlov
asosida saralovchi Toshkent shahar hududiy tanlov komissiyasi yig‘ilishi
02-06-B/11-son BAYONI**

2023-yil 11-sentabr

Toshkent shahri

Raislik qiluvchi: **Sh.Anvarov** – O‘zbekiston yoshlar ittifoqi Toshkent shahar hududiy Kengashi raisi, Tanlov komissiyasi raisi

Qatnashdilar: **O.Sobitov** – Oliy Majlis Qonunchilik palatasi huzuridagi Yoshlar parlamenti raisi o‘rinbosari, O‘zbekiston yoshlar ittifoqi Toshkent shahar hududiy Kengashi raisi maslahatchisi,
S.Ismoilov – podpolkovnik, O‘zbekiston yoshlar ittifoqi Toshkent shahar hududiy Kengashi bo‘lim boshlig‘i,
A.Ochilboyev – Toshkent shahar “Kamalak” bolalar tashkiloti raisi,
H.Axadova – O‘zbekiston yoshlar ittifoqi Toshkent shahar hududiy Kengashi bo‘lim boshlig‘i

Ishtirok etganlar: O‘zbekiston yoshlar ittifoqining Toshkent pediatriya tibbiyot institutidagi boshlang‘ich tashkiloti yoshlar yetakchisi, yo‘nalishlar, fakultetlar koordinatorligi uchun nomzodlar (*ro‘yxat asosida*)

KUN TARTIBI:

O‘zbekiston yoshlar ittifoqining Toshkent pediatriya tibbiyot institutidagi boshlang‘ich tashkiloti Yoshlar yetakchisi, yo‘nalishlar, fakultetlar koordinatorligi uchun nomzodlar bilan o‘tkazilgan suhbat natijalari to‘g‘risida

(Sh.Anvarov, O.Sobitov, S.Ismoilov, A.Ochilboyev, H.Axadova, D.Yoqubjonov)

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining 2023-yil 7-fevraldagi 02-PA 1/1-254-son topshirig‘iga asosan, O‘zbekiston yoshlar ittifoqining oliy ta’lim muassasalaridagi boshlang‘ich tashkilotlari faoliyatini takomillashtirish vazifasi belgilangan.

Mazkur topshiriqqa asosan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashining 2023-yil 29-martdagi “O‘zbekiston yoshlar ittifoqining oliy ta’lim muassasalaridagi boshlang‘ich tashkilotlari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori tasdiqlanib, ijroga yo‘naltirilgan.

2023-2024 о‘quv yili uchun O‘zbekiston yoshlar ittifoqining oliy ta’lim muassasalaridagi boshlang‘ich tashkiloti Yoshlar yetakchisi, yo‘nalishlar, fakultetlar koordinatorligiga munosib talaba-yoshlarni tanlov asosida saralash maqsadida yuqoridagi qaror bilan tasdiqlangan Nizomning 5-bobi 22-bandi (ko‘rsatilgan nomzodlar oliy ta’lim muassasasi rektorining tavsiyasi bilan O‘zbekiston yoshlar ittifoqining tegishli hududiy Kengashlari huzuridagi tanlov komissiyasi suhbatdan o‘tish uchun yuboriladi), 23-bandi (Tanlov komissiyasi suhbatidan o‘tgan nomzodlar boshlang‘ich tashkilotning umumiy yig‘ilishda Yoshlar yetakchisi saylovi jarayonlarida ishtirok etish huquqini qo‘lga kiritadi)ga muvofiq joriy yilning 10-iyul sanasidan boshlab, O‘zbekiston yoshlar ittifoqi Toshkent shahar hududiy Kengashi huzurida Tanlov komissiyasi faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Tasdiqlangan Nizomning 24-bandi talablariga muvofiq, Toshkent shahridagi oliy ta’lim muassasalarida faoliyat yuritib kelayotgan Ittifoqning boshlang‘ich tashkiloti Yoshlar yetakchisi, yo‘nalishlar, fakultetlar koordinatorligi uchun nomzodlarni Tanlov komissiyasi suhbatidan o‘tkazish va eng munosiblarini saralash belgilangan.

Kun tartibidagi masala atroflicha muhokama qilinib, bildirilgan fikr-mulohazalarni inobatga olib majlisda **qaror qilindi:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashining 2023-yil 29-martdagi “O‘zbekiston yoshlar ittifoqining oliy ta’lim muassasalaridagi boshlang‘ich tashkilotlari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori bilan tasdiqlangan Nizomning 5-bobi 22-, 23-bandlari asos uchun qabul qilinsin.

2. Toshkent pediatriya tibbiyot instituti rektorining yoshlar masalalari bo‘yicha maslahatchisi – Yoshlar yetakchiligiga **Abidov Xasanxodja Alisherovich** nomzodi ma’qullansin.

3. Ittifoqning Toshkent pediatriya tibbiyot institutidagi boshlang‘ich tashkiloti yo‘nalishlar, fakultetlar koordinatorligi uchun ma’qullangan nomzodlar ro‘yxati 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Ittifoqning Toshkent pediatriya tibbiyot institutidagi boshlang‘ich tashkiloti umumiy yig‘ilishi **joriy yilning 27-sentabr kuni** chaqirish to‘g‘risidagi Tanlov komissiyasi taklifi inobatga olinsin.

5. Toshkent pediatriya tibbiyot instituti rahbariyatiga Ittifoqning Toshkent pediatriya tibbiyot institutidagi boshlang‘ich tashkiloti Yoshlar yetakchisi, yo‘nalishlar, fakultetlar koordinatorligi uchun ma’qullangan nomzodlar boshlang‘ich tashkilotning umumiy yig‘ilishi qarori bilan saylangan va tasdiqlangan kundan boshlab quyidagi tartibda:

Yoshlar yetakchisi bo‘lgan oliy ta’lim muassasasining professor-o‘qituvchisi va boshqa toifadagi xodimiga Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 26-avgustdagi 517-son qarori bilan tasdiqlangan nizomning 17¹-bandiga yohud bakalavr va magistratura bosqichida ta’lim olayotgan talabalarga Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-yanvardagi 59-son qarori bilan tasdiqlangan nizomning 20¹-bandiga muvofiq Rektorning yoshlar masalalari bo‘yicha maslahatchisi – Yoshlar yetakchisiga har oylik qo‘shimcha haq to‘lab borish;

Yoshlar Kengashi a‘zolari yo‘nalishlar va fakultetlar koordinatorlariga O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashining 2023-yil 29-martdagi “O‘zbekiston yoshlar ittifoqining oliy ta’lim muassasalaridagi boshlang‘ich tashkilotlari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori muvofiq ularning ta’lim olish shakli va o‘zlashtirish ko‘rsatkichidan qat’iy nazar oliy ta’lim muassasasining budjetdan tashqari mablag‘lar hamda talabalarni rag‘batlantirish jamg‘armasi hisobidan har oyda bazaviy stipendiyaning uch baravari miqdoriga teng bo‘lgan tartibda qo‘shimcha moddiy rag‘batlantirish tavsiya etilsin.

6. Mazkur qaror qabul qilingan kundan boshlab amal qiladi.

Tanlov komissiyasi kotibi



H.Axadova

*Tanlov komissiyasining
2023-yil 11-sentabrdagi
02-06-B/11-son bayoniga
1-ilova*

**Ittifoqning Toshkent pediatriya tibbiyot institutidagi
boshlang'ich tashkiloti yo'nalishlar, fakultetlar koordinatorligi uchun
ma'qullangan nomzodlar
RO'YXATI**

| T/r. | F.I.Sh. | Tavsiya etilgan Yoshlar kengashidagi lavozimi |
|-------------|---|---|
| 1. | Abidov Xasanxodja Alisherovich | Toshkent pediatriya tibbiyot instituti rektorining yoshlar masalalari bo'yicha maslahatchisi – Yoshlar yetakchisi |
| 2. | Norqo'ziyeva Fotima Ne'matillo qizi | Intellectual loyihalar koordinatori lavozimi |
| 3. | Sidiqjonova Muattar Farhodjon qizi | Besh tashabbus loyihalari koordinatori |
| 4. | Matkarimov Bekmurod Bardimurotovich | Harbiy-vatanparvarlik loyihalari koordinatori |
| 5. | Abdug'aniyev Fazliddin Muhiddin o'g'li | Tadbirkorlik va innovatsion loyihalari koordinatori |
| 6. | Abdulaxatov Abror O'razali o'g'li | “Yoshlar daftari” va metsenatlik dasturlari koordinatori |
| 7. | Nabiyeva Zuxraxon Ibrohim qizi | Talaba qizlar koordinatori |
| 8. | Isomiddinov Alijon Olimjon o'g'li | 1-Pediatriya va xalq tabobati fakulteti koordinatori |
| 9. | Badriddinov Fazliddin Madamixon o'g'li | 2-Pediatriya va tibbiy-biologiya fakulteti fakulteti koordinatori |
| 10. | Bo'riboyeva Sangina Akromjon qizi | Tibbiy-pedagogika va davolash fakulteti koordinatori |
| 11. | Pazilova Iroda Muzaffar qizi | Oliy malakali hamshira fakulteti koordinatori |
| 12. | Xamdamov Javlon Baxtiyor o'g'li | Magistratura koordinatori |

